



TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 18 - may

143-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining 2023-yil 18-maydagi I-58-83-14-220-K/23-sonli qarori ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasi va O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-813-son Qonunning 13-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son qarorlariga asosan, xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining 2023-yil 18-maydagi "Yangihayot tuman mahalliy budjetining 2023-yil qo'shimcha manbalari mablag'larini xarajatlarga yo'naltirish to'g'risida"gi I-58-83-14-220-K/23-sonli qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 15-maydagi 12-33-XDFU-son topshiriq xati ijrosini ta'minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Yangihayot tumani mahalliy budjetining 2023-yil qo'shimcha manbalari mablag'lari hisobidan ilovada keltirilgan xarajatlar uchun 903 859,0 (to'qqiz yuz uch million sakkiz yuz ellik to'qqiz) ming so'm mablag' ajratilsin.
2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Maxmudov) tegishliligi bo'yicha tashkilotlarning xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar kiritsin.
3. Yangihayot tuman hokimining birinchi o'rinbosari (X.Tashpulatov), mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (X.Normurotov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Maxmudov), xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi kotibiyati (X.Dadabaev) hamda tuman hokimligi bosh hisobchisi (I.Safarov) ajratilgan mablag'larni o'rnatilgan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlasin.
4. Yangihayot tumani G'aznachilik xizmati bo'linmasi (A.Odilov) ajratilgan mablag'larni o'rnatilgan tartibda moliyalashtirish choralari ko'rsin.
5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari X.Tashpulatov zimmasiga yuklatilsin.

Yangiheyot tumani hokimi



X.Inogamov

Yangihayot tuman hokimining
2023 yil 18 maydagi
143-14-220-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Yangihayot tumani mahalliy budjetining 2023-yilda shakllangan qo'shimcha
manbalari hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar**

ming so'm

T/r	Tashkilot nomi	Xarajat manbasi	Talab etiladigan mablag'
1	Yangihayot tumani hokimligi xodimlarini rag'batlantirish	Yangihayot tumani mahalliy budjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan mablag'lari hisobidan	362 384,0
	Yangihayot tumani oila va xotin-qizlar bo'limi xodimlarini rag'batlantirish		15 122,0
	Yangihayot tumani Moliya bo'limi xodimlarini rag'batlantirish		86 851,0
	Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi kotibiyati xodimlarini rag'batlantirish		18 553,0
	Yangihayot tumani mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi xodimlarini rag'batlantirish		38 926,0
	Yangihayot tumani G'aznachilik bo'linmasi xodimlarini rag'batlantirish		33 250,0
PQ-5515-son qaror bo'yicha aprel oyi rag'batlantirishga ajratiladigan jami mablag':			555 086,0

2	Yangihayot tuman hokimligi, tuman soliq inspeksiyasi hamda tuman ichki ishlar bo'limi binolari qurilishi bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlariga	Toshkent shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2023-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'laridan Yangihayot tumaniga o'tkazilgan mablag'lar hisobidan	25 712,0
3	PQ-4102-sonli qaroriga asosan Yangihayot tumani 4 ta sektor shtabi a'zolarini 2023-yil 1-chorak yakuni bo'yicha rag'batlantirish xarajatlariga		98 900,0
4	Yangihayot tumani hokimligining qo'riqlash xizmati xarajatlariga		153 189,0
5	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-avgustdagi 536-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2022-yil 23-martdagi 02-PA 1/1-380-sonli topshirig'iga asosan hokim o'rinbosarlarini rag'batlantirish xarajatlariga		70 972,0
Jami:			